

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

2-2025  
TABIIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>M.R.Usmanov, N.A.Suyarova, S.A.Normatov</b>	
Cho'l turizmini hududiy tashkil etishning geografik xususiyatlari (Qashqadaryo viloyati misolida) .....	262
<b>J.T.Makulov</b>	
Sel toshqinlarining dinamik ko'rsatkichlarini baholash .....	268
<b>I.Z.Akaboyev</b>	
Qoradaryo havzasi muzliklarining balandlik xususiyatlari va morfologik turlari .....	274
<b>Sh.Z.Jumaxanov A.A.Abdullayev</b>	
O'zbekiston yoqilg'i-energetika majmuasining tarmoq va hududiy tarkibi .....	280
<b>A.F.Raxmatov</b>	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jaligida bog'orchilik sohasining ahamiyati va istiqbollari .....	289
<b>O.O.Baltabayev</b>	
Qoraqalpog'iston oykonimiyasining spektral va stratigrafik tarkibi va undagi hududiy tafovutlar .....	294
<b>B.R.Rapiqov</b>	
Markaziy Osiyoda Sirdaryo suv resurslaridan hamkorlikda foydalanish masalalari.....	301
<b>X.A.Abduvaliyev</b>	
Aholi joylanishiga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar .....	306
<b>D.X.Yuldasheva</b>	
Aholining demografik faolligi ijtimoiy-geografik obyekt sifatida.....	315
<b>O.B.Abdurayimova</b>	
Global iqlim o'zgarishi davrida o'rta Zarafshon havzasidagi suv omborlarining atrof-muhitga ta'siri .....	320
<b>M.R.Qoriyev</b>	
Namangan viloyatidagi sug'oriladigan yerbarning ikkilamchi sho'rlanish muammosi va uni bartaraf etish imkoniyatlari.....	331
<b>R.T.Pirnazarov</b>	
Tog' ko'llarining evolyutsiyasi, genetik tasniflari va o'ziga xos xususiyatlari.....	340

---

ILMIY AXBOROT

<b>I.Sh.Tugizova</b>	
<i>Achillea</i> L. turkumiga mansub ayrim dorivor turlar tahlili.....	344
<b>D.I.Komilova, B.M.Sheraliyev</b>	
Qoradaryo ixtiofaunasi: antropogen omilning faol ta'siridan oldin va keyin .....	348
<b>I.Sh.Tugizova</b>	
<i>Achillea mellifolium</i> L. o'simligining fitokimyoiy tarkibi va xalq tabobatida qo'llanilishi .....	355
<b>O.M.Gafurova, Sh.A.Xalimov, B.M.Sheraliyev</b>	
<i>Schizothorax</i> Heckel, 1838 (Teleostei: Cyprinidae) urug'ining qisqacha o'rganilish tarixi va hozirgi sistematik holati .....	355



УО'К: 31:+914.04

**AHOLINING DEMOGRAFIK FAOLLIGI IJTIMOIY-GEOGRAFIK OBYEKT SIFATIDA****ДЕМОГРАФИЧЕСКАЯ АКТИВНОСТЬ НАСЕЛЕНИЯ КАК СОЦИАЛЬНО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЙ ОБЪЕКТ****DEMOGRAPHIC ACTIVITY OF THE POPULATION AS A SOCIO-GEOGRAPHICAL OBJECT****Yuldasheva Dilshoda Xoshimovna** 

Qo'qon davlat pudagogika universiteti geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasи o'qituvchisi.

**Annotasiya**

*Ushbu maqolada bugungi demografik jarayonlardagi tub o'zgarishlar, ularning o'ziga xos jihatlari, yoshlar demografik faoliyatining hududiy-geografik o'zgarishlari hamda davlat yoshlar siyosatining mohiyati ko'rib chiqilgan. Globallashuv davrida mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishida inson omili, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarning yosh va jinsiy tarkibi va sifat o'zgarishlariga ta'siri tahlil etilgan. Shuningdek, maqolada aholining demografik faolligi tushunchasining mazmuni va uning jamiyat hayotidagi bugungi ahamiyati yoritilgan.*

**Аннотация**

*В статье рассматриваются принципиальные изменения современных демографических процессов, их специфические аспекты, территориально-географические изменения демографической активности молодежи, сущность государственной молодежной политики. Проанализировано влияние человеческого фактора, социально-экономических процессов на половозрастной состав и качественные изменения в экономическом развитии стран в эпоху глобализации. В статье также освещается содержание понятия демографической активности населения и его современное значение в жизни общества.*

**Abstract**

*The article examines fundamental changes in modern demographic processes, their specific aspects, territorial and geographical changes in the demographic activity of young people, the essence of state youth policy. The influence of the human factor, socio-economic processes on the age and gender composition and qualitative changes in the economic development of countries in the era of globalization is analyzed. The article also highlights the content of the concept of demographic activity of the population and its modern significance in the life of society.*

**Kalit so'zlar:** Demografik faollik, demografik jarayonlar, inson omili, tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish, migratsiya, demografik omillar.

**Ключевые слова:** Демографическая активность, демографические процессы, человеческий фактор, рождаемость, смертность, брак, развод, миграция, демографические факторы.

**Key words:** Demographic activity, demographic processes, human factor, birth rate, mortality, marriage, divorce, migration, demographic factors.

**KIRISH**

Demografik jarayonlar aholi soni, tarkibi o'zgarishida asosiy omil bo'lib, bugungi globallashuv davrida mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishida inson omili, uning takror barpo bo'lishiga katta ahamiyat berilmoxda. Jadal kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar, yil sayin rivojlanib borayotgan o'rta Miyona mamlakatlar aholi soni, joylashuvi, uning yosh va jinsiy tarkibi va sifat o'zgarishlarini katta e'tibor markaziga olmoqda. Sababi aynan bugungi demografik jarayonlar mamlakatning ertangi kunini katta mamlakatlar tajribasidan ma'lum bo'lib ulgurdi.

Aholining demografik faolligi deganda aholining takror ishlab chiqarishini belgilovchi asosiy demografik jarayonlarning intensivligi tushuniladi. Bunday jarayonlarga tug'ilish, o'lim darajasi, migratsiya, shuningdek, nikoh va ajralishlar kiradi. Boshqacha qilib aytganda, demografik faollik jamiyatda aholining soni va tuzilishiga ta'sir qiluvchi hodisalarining jadalligini aks ettiradi. Bu

komponentlar ko'pincha aholi harakati deb ataladi hamda jarayonlarning birligidagi ta'siri aholining dinamikasini va uning yosh va jins tarkibini belgilaydi [2].

### **ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA**

Demografik jarayonlar jumladan, tug'ilish, o'lim, tabiiy va mexanik o'sish, nikoh va ajralish masalalari xorijiy olimlardan J.Graunt, A.Giyyar, D.Botero, A.Landri, V.S.Tomston, F.V.Notsteyn, D.Kirinom, MDH mamlakatlardan V.A.Borisov, D.I.Valentey, A.Y.Kvasha, D.Veresov, B.S.Urlanis, A.G.Vishnevskiy, V.V.Pokshishevskiy va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan.

O'zbekistonda aholishunoslik, demografik jarayonlar, oila demografiyasi, aholi prognози masalalari bilan M.Q.Qoraxonov, I.R.Mullajonov, X.Salimov, E.A.Ahmedov, R.A.Ubaydullayeva, O.B.AtaMirzayev, A.A.Qayumov, Q.X.Abduraxmonov, A.S.Soliyev, L.P.Maksakova, M.R.Bo'riyeva, Z.N.Tojiyeva, N.Q.Komilova, G.R.Asanov, Z.Raimjonov, I.Turdimambetov, R.B.Qodirov, G.A.Xodjayeva, N.J.Yembergenov va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan.

Bevosita O'zbekistonda demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlarini o'rganish Z.N.Tojiyevaning tadqiqotida atroficha yoritilgan. Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari mehnat resurslaridan samarali foydalanish masalalari R.B.Qodirov, Z.A.Temirovlar tomonidan olib borilgan. Biroq, yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda, Farg'ona vyaloti yoshlarning demografik faoliyat hududiy xususiyatlarini o'rganishga doir tadqiqot ishlari yetarlicha olib borilmagan.

### **TADQIQOT METODOLOGIYASI**

Tadqiqotda amalga oshirishda avvalo har bir hududning aholi soni haqidagi, aholining tug'ilish, o'lim, niokj, ajraish, migratsiya haqidagi ma'lumotlardan, shuningdek so'nggi yillarda amalga oshirilgan demografik tadqiqotlar natijalari va unga oid adabiyotlardan foydalaniladi. Bu ma'lumotlar asosida aholining demografik faoliyatiga ta'sir etuvchi iqtisodiy-ijtimoiy va geografik omillarni tizimli taxlili o'tkazildi. Bu hisob ishlarida O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mita materiallaridan, O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid qabul qilinayotgan turli qarorlardan hamda mavzuga oid adabiyotlardan foydalanildi hamda ular tizimli tahlil, qiyosiy-geografik, statistik kabi usullarda tadqiq etildi.

### **NATIJA VA MUHOKAMA**

Tug'ilish, o'lim, nioh, nikoh koeffitsenti, ajralishlar, migratsiya va bu tushunchalar bilan bog'liq barcha komponentlar demografik faoliyati tashkil etadi va demografik koeffitsientlar yordamida miqdoriy jihatdan o'lchanishi mumkin. Shunday qilib, tug'ilish va o'limning umumiyligi koeffitsienti aholining tabiiy o'sishini belgilaydi va migratsiyani hisobga olgan holda umumiyligi o'sishni (kamayishni) tashkil etadi. Nikoh va ajralishlar koeffitsienti oilalar va uy xo'jaliklari tarkibining dinamikasini tafsiflaydi. Bu esa aholining demografik faoliyati jamiyatdagagi reproduktiv jarayonlarning intensivligini va aholining harakatchanligini aks ettiruvchi murakkab ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Ijtimoiy geografiyada demografik faoliyat fazoviy-hududiy va ijtimoiy sharoitga bog'liq bo'lgan obyekt sifatida qaraladi. Mamlakatlar va mintaqalar o'rtaqidagi demografik faoliytdagi farqlar bir qator ijtimoiy-geografik omillar - iqtisodiy, madaniy, tabiiy va geografik omillar bilan bog'liq. Ilmiy manbalarga ko'ra, demografik faoliyati turli to'lqinlarda rivojlanadi. Demografik to'lqinning ko'tarilishi va pasayishi tarkibiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ta'siriga bog'liq bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, tug'ilish darajasining o'sishi yoki kamayishi, migratsiya harakatchanligi, shuningdek, aholining turmush faoliyati farovonlik darajasi, ta'lif, urbanizatsiya, madaniy an'analar, demografik siyosat va boshqalar kabi sharoitlar ta'siri bilan belgilanadi.

Aholi geografiyasi nuqtai nazaridan bir xil demografik jarayonlarning turli joylarda turli namoyon bo'lishi nihoyatda muhimdir. Masalan, urbanizatsiya va shaharlarning rivojlanishi ko'pincha tug'ilishning pasayishi va nikohning kechikishi bilan birga keladi, qishloq joylarda esa oldingi nikoh shakllari va yuqori tug'ilish ko'rsatkichlari saqlanib qolmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadi, shaharlarda yoshlar o'qish, kasb-hunar egallash va oila qurish uchun qishloqqa qaraganda ko'proq vaqt sarflashadi. Shunga ko'ra, shaharlarda demografik faoliyati (nikoh va tug'ilish ko'rsatkichlari bo'yicha) pastroq yoki kechroq yoshda paydo bo'ladi, an'anaviy qishloq jamoalarida esa bu jarayon ancha yuqoriroq va erta boshlanadi. Bundan tashqari mintaqalar o'rtaqidagi diniy va madaniy farqlar ham mavjud bo'ladi. Erta turmush qurish va tug'ilishning yuqori ko'rsatkichlari saqlanib qolishi milliy-madaniy meyorlarning yoshlarning demografik xulq-atvoriga ta'sirida o'z aksini topadi.


## GEOGRAFIYA

Xalqlarning turli an'analari, ularning jamiyatga munosabati va shu jamiyatlarda shakllangan tarixiy xususiyatlarga ko'ra demografik faollikning mintaqaviy farqlari kuzatiladi. Aholining demografik faolligining mintaqaviy xususiyatlari turli xil hududiy darajalarda namoyon bo'ladi: dunyo mamlakatlari o'tasida, bir mamlakat ichidagi hududlar o'tasida, shuningdek, shahar va qishloq o'tasida. Global miqyosda demografik o'tish yuz berayotgan rivojlanayotgan mamlakatlarda tug'ilish va aholi o'sish sur'atlarining yuqori bo'lishi olib keldi, rivojlangan mamlakatlar esa aholining kamayishiga duch keldi. Masalan, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti 1,5 atrofida bo'lsa, bir qator Osiyo va Afrika mamlakatlarida u 2,1 dan sezilarli darajada yuqori bo'lmoxda. Markaziy Osiyoning eng ko'p aholisiga ega bo'lgan O'zbekistonda tug'ilish darajasi ham nisbatan yuqoriligidcha qolmoqda, tug'ilishning umumiy koeffitsiyenti yangilanish darajasidan oshib, Yevropa va Markaziy Osiyodagi o'ttacha ko'rsatkichdan sezilarli darajada yuqori kechmoqda. Shu bilan birga, O'zbekiston hududida ko'rsatkichlarning o'zgaruvchanligi ham kuzatilmoxda: statistik ma'lumotlarga ko'ra, tug'ilishning eng yuqori ko'rsatkichlari an'anaviy qishloq xo'jaligi hududlarida (masalan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida), eng pasti esa sanoati rivojlangan yoki urbanizatsiyalashgan hududlarda (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro viloyati) qayd etilgan.

Aholining demografik faolligi ijtimoiy-geografik o'rganish obyekti hisoblanadi, chunki u ijtimoiy sharoitlar ta'sirida makonda o'zgarib turadi. Uning tarkibiy qismlari - tug'ilish va o'lim darjasasi, migratsiya, nikoh va ajralishlar ko'rsatkichlari aholi ko'payishining keng qamrovli shakllarini tashkil qiladi. Ushbu hodisani mintaqalar bo'yicha tahlil qilish bizga madaniy meyorlar, urbanizatsiya darajasi va iqtisodiy rivojlanish darajasini, odamlarning demografik xatti-harakatlari va turli joylarda aholi dinamikasiga qanday ta'sir qilishini aniqlash imkonini beradi. Shuning uchun ham demografik faoliy minraqaviy miqyosda o'rganish ijtimoiy geografiyaning muhim vazifasi bo'lib, muammoli hududlarni aniqlash, demografik va ijtimoiy siyosatni ishlab chiqishda ushbu farqlarni hisobga olish imkonini beradi.

Aholining takror barpo bo'lishi jamiyat davomiyligini ta'minlovchi asosiy jarayon bo'lib, tug'ilish va o'lim jarayonlari natijasida, inson avlodining muntazam yangilanib turadi. Ma'lum bir avlod vakillarining o'rniqa ikkinchi bir avlod vakillarining kelishi bilan avlodlar almashadi, an'ana va qadriyatlar qisman saqlanada yoki sayqallanadi. Avlodlar almashinishi davomida (aholining takror barpo bo'lishi) uning soni, yosh va jinsiy tarkibi o'zgaradi. Avlodlar almashinuvni aholi tabiiy o'sishi hajmini aniqlash, har bir avlod o'ttacha umr ko'rishi, tug'ilish va o'lim jarayonlari yig'indisi aholining tabiiy harakati yoki takror barpo bo'lishi deyiladi. Aholining takror barpo etilishi bevosita va bilvosita aholining tug'ilishi, o'limi va tabiiy o'sishiga bog'iqliq [4; 117-6].

Jamiyatda yuz berayotgan demografik jarayonlarning asosiy negizini shu jamiyat demosalarning qay darajada faolligi belgilaydi. Demografik faoliyka albatta tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish va migratsiya kirdgani holda ularga turli omillar ta'sir etib turadi. Eng asosiy omillar bu iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy omillar hisoblanib, ular bevosita jarayonlar bilan zanjir reaksiyasini hosil qilib turadi (1-rasm).



1-rasm. Demografik jarayonlar tarkibi va unga ta'sir etuvchi omillar

Chizmadan ko'riniib turibdiki, demografik faollikka asosiy 3 omil biriktirilib, iqtisodiy omillarga daromadlar, ishsizlik yoki ish bilan ta'minlanish darajasi, iqtisodiy siyosat, makroiqtisodiy barqarorlik, urbanizatsiya jarayonlari kiradi. Ijtimoiy omillarga esa, ta'lim darajasi, ayollar huquqlari, sog'liqni saqlash holati, fuqarolar ongi, mediadan foydalanish, oila qurish urf-odatlari, jamiyatda ayollar roli kabi jihatlar tegishli bo'ladi. Madaniy omillarga milliy an'analar, diniy qadriyatlar, oilaviy munosabatlarga bo'lgan qarashlar, ma'naviyat, madaniyat kabilalar kiritiladi. Lekin keyingi yillarda bu omillarning soni kengayib bormoqda. Masalan tadqiqotchilar, bu omillar qatoriga tabiiy-geografik omillarni (iqlim, suv resurslari, aholi joylashuvi, tabiiy ofatlar xavfi, re'lef va b.) qo'shimcha qilayotgan bo'lsa, ekologik omillar ham asosiy omil bo'lishi kerakligi ta'kidlanmoqda.

Demografiyada keng ishlatalidigan terminlar qatorida yosh tarkibi tushunchasi kiritiladi. Yosh tarkibining jamiyatda asosiy bo'g'ini albatta bu yoshlardan jamoasidir. Yoshlardan o'zi nima? Qaysi yoshdagi guruhlar yoshlarni tashkil etadi degan savol yuzaga keladi. Bu esa turli jamiyatlarda turlicha ajratilib, bu hol mazkur jamiyatlarga ularga nisbatan qarashlarga bog'liq. Ko'pchilik xalqlarda 30 yondan kichiklarga nisbatan yoshlardan tushunchasi qo'llanilsa, aksar mamlakatlarda o'rtacha yosh ko'rsatkichining yarimiga teng bo'lgan yoshnidan yoshlardan tushunchasining eng yuqori chegarasi sifatida qaraydi.

**Yoshlardan tushunchasi** – bu muayyan yosh oralig'ida bo'lgan, hayotda mustaqil faoliyat yuritish bosqichiga endi kirib kelayotgan, jamiyatda izlanayotgan, o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirayotgan demografik guruh va tushunchadir. Aniq yosh chegarasi jahonda turlicha belgilanadi, chunki har bir davlatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy o'ziga xosliklari, shu bilan birga, demografik siyosat, qonunchilik va an'anaviy urf-odatlar har xildir [5].

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (WHO) yoki Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) hisob-kitoblarida ko'proq 15–24 yosh oralig'i "yoshlardan" sifatida ta'riflanadi. Ba'zi mamlakatlarda 14 yoshdan 29 yoshgacha bo'lgan fuqarolar "yoshlardan" yoki "yosh avlod" sifatida qabul qilinadi. Uzoq davr mobaynida bu tushuncha 14–25 yosh oralig'ini o'z ichiga olar edi, ammo zamonaviy sharoitda, ta'lim muddatlarining uzayishi va mustaqil hayotga kechikib kirib kelishi sababli, yoshlardan yosh chegarasi 30 yoshgacha, hatto 35 yoshgacha kengayib bormoqda. [6]

O'zbekiston Respublikasida bir necha yillardan beri yoshlardan 14–30 yosh oralig'ida bo'lgan shaxslar tushuniladi, bu haqda rasmiy hujjatlar (masalan, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" gi Qonun) va boshqa normativ-huquqiy aklarda belgilab berilgan. Yoshlardan siyosatida ana shu yosh chegarasi (30 yoshgacha) amal qilishi sababli, ta'lim, ish bilan ta'minlash, imtiyozlar, uy-joy bilan ta'minlash, qarz (ipoteka) masalalarida ustuvorliklar aynan shu toifa shaxslar uchun ko'zda tutiladi [1].

Yoshlardan demografik faollikning eng muhim tashuvchisi hisoblanadi, chunki aholining reproduktiv va migratsiya harakatchanligining asosiy qismini aynan yosh avlodlar tashkil etadi. Ilmiy adabiyotlarda yoshlardan jamiyat taraqqiyotining muhim ijtimoiy-demografik resursi hisoblanadi. Buning sababi, reproduktiv yoshdagi yoshlardan aholining kelajakdagagi o'sishini (tug'ilish koeffitsientini) ta'minlashi, nikoh qurishi, yangi oilalar tashkil etishi, migratsiya bo'yicha aholining eng harakatchan qismi hisoblanadi. Demografik ma'noda yoshlardan voyaga yetish, ijtimoiy kamolotga erishish davrini boshdan kechirayotgan ijtimoiy-demografik guruhdir.

Umuman olganda aholining demografik faoliyati ijtimoiy-geografik obyekt sifatida qaralayotganda bizning nazarimizda yoshlardan tushunchasi yoki boshqacha aytgan "yoshlardan" demografik guruh sifatida ajratish muhim bo'ladi. Shuning uchun yoshlarni jamiyatning tayanchi, asosiy sifatida quyidagi muhim xususiyatlarini ajratish mumkin:

**Jismoniy va ruhiy rivojlanish:** Yoshlik – ko'p hollarda inson voyaga yetishi, jismoniy kamoloti, bo'lajak kasbni tanlashi, jinsiy/reproduktiv imkoniyatlar shakllanishi kabi jarayonlar kechadigan muhim palla.

**Ijtimoiy-iqtisodiy transformatsiya:** Yoshlardan dastlabki kasbiy ko'nikmalarni egallash, ish tajribasi orttirish, mustaqil daromad topish, oila qurish, farzand ko'rish kabi hayotiy qarorlarni amalga oshiradigan asosiy pog'onadadir.

**Ma'lumot olish va ma'naviy o'sish:** Yangi texnologiyalarni o'rganish, ta'lim olish, turli kasbiy ko'nikmalarni oshirishda yoshlardan eng faol guruh hisoblanadi.

**Innovatsion faollik:** Yoshlarning ilg'or fikrlash, yangicha g'oyalar bilan chiqish qobiliyati kuchli bo'ladi. Jamiyatni modernizatsiya qilish jarayonlarida yosh avlod muhim rol o'ynaydi.

## GEOGRAFIYA

Yoshlarni demografik resurs sifatida tahlil qilishga bir qancha ilmiy yondashuvlar mavjud. Yondashuvlardan biri sotsiologik bo'lib, u oila, nikoh, farzand ko'rish va migratsiya sohalarida yoshlarning qadriyatları, munosabati va xulq-atvorini o'rganadi. Sotsiologlar modernizatsiya ta'sirida yoshlarning qadriyat yo'nalishlari qanday o'zgarib borayotganini o'rganmoqdalar: masalan, o'z-o'zini anglash va ta'lim qiymatining o'sishi ko'pincha kechikib turmush qurish va bolalar sonining kamayishi bilan birga kechadi. Yana bir yondashuv demografik bo'lib, unda yosh avlodning kattaligi, uning tuzilishi (masalan, jinslar nisbati, shahar va qishloq aholisining ulushi) va yoshlarga taalluqli ko'rsatkichlar (yoshlar nikohi, yoshlarning tug'ilish darajasi, yoshlarning migratsiyadagi ishtiroki) miqdoriy tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv doirasida yoshlar demografik xatti-harakatlarning tashuvchisi sifatida qaraladi, ular keksa avlodlarning xatti-harakatlaridan farq qilishi mumkin. Masalan, zamonaviy Yevropada yoshlarning demografik xatti-harakatlarida ularning ota-onalari avlodiga nisbatan tub o'zgarishlar mavjud: kech nikohlar, ro'yxatdan o'tmagan hoda birgalikda yashash va birinchi farzandning tug'ilishini katta yoshga surish (35 yoshdan kiyinga) kabilar [3].

Uchinchi yondashuv geografik (makon) bo'lib, u yoshlarning holati va xatti-harakatlaridagi hududiy farqlarga qaratiladi. U ijtimoiy-geografik muhitning yoshlarga qanday ta'sir qilishini o'rganadi: masalan, qishloq va shaharlardagi, respublikamizning turli mintaqalaridagi yoshlarning demografik faolligini, shuningdek, yoshlarning hududlar va mamlakatlar o'rtasidagi migratsiyasini solishtiradi. So'nggi yillarda MDH mamlakatlarda yoshlarning "demografik salohiyati" tahlilida – yoshlar qatlamining hajmi va xususiyatlari aholining zarur ko'payishi va iqtisodiy rivojlanishini qay darajada ta'minlashga qodirligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qayd etilishicha, hozirgi yoshlar avlodni tarixda eng bilimliilar sifatida qayd etilmoqda, ammo ularning demografik xulq-atvoriga ta'sir etuvchi yangi ijtimoiy-iqtisodiy voqeliklar davrda yashamoqda.

## XULOSA

Yuqorida tahlildan ko'rinish turibdiki, aholining demografik faolligi bo'lgan tug'ilish, o'lim, nikoh, ajralish va migratsiya jarayonlari jamiyat demografik vaziyatini belgilovchi asosiy omillardan hisoblanadi. Ayniqsa, mamlakatimizda eng yirik yosh qatlami hisoblangan yoshlarda bu jarayonlarning ayni paydag'i holatini tahlil qilish dolzarb ahamiyatga ega. Jamiatning demografik maylini o'rganish, ularning intilishlari, qarashlari va demografik jarayonlarda bevosa ishtirokchi sifatidagi unga yondoshuvlarini o'rganib borish bugungi ijtimoiy geografiyaning muhim masalalaridan biridir. Mazkur holatlarni aholi soni jihatdan eng yirik bo'lgan Farg'ona mintaqasi bo'yicha tahlil etish asosiy ijtimoiy geografik tadqiqotlardan biri bo'lishi lozim. Kelgusi tadqiqotlarda mazkur masalaning asosiy sharh va tahlillarini ko'rib chiqiladi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 14-сентябрдаги ЎРҚ-406-сонли “Ёшларга оид давлат сиёсати тўғрисида”ги Қонуни.
2. Бўриева М.Р. Ўзбекистонда оила демографияси. –Т.: Университет, 1997.–181 б.
3. Темиров З.А., Эргашев С.А., Умаров Н. Аҳоли таркиби ва ундаги ўзгаришларнинг демографик хусусиятлари // Олий таълим тизимида табиий фанлар: илмий тадқиқот, ўқитиш ва малака ошириш муаммолари. Республика илмий-амалий конференция материаллари. –Фарғона, 2018. –Б.93-96.
4. Тохиева З.Н. Аҳолишунослик ва ижтимоий-иктисодий тараққиёт// Ер ҳақидаги фанлар: истиқбол ва муаммолар. Республика илмий-амалий конференция материаллари. –Тошкент, 2017. –Б. 120-122.; 117-б.
5. Ткаченко А.А., Аношкин А.Б., Денисенко М.Б. и др. Демографическая энциклопедия. –М.: “Издательство “Энциклопедия”, 2013. 944 с.
6. Польский С.А. География населения развитых и развивающихся стран (с основами демографии). – Минск.: Университетское, 1987. –175 с.